

O‘ZBEKISTON OSIYO TARAQQIYOT BANKNING MINTAQADAGI ENG YIRIK HAMKORI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-noyabr kuni Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kanda boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Suhbat avvalida OTB rahbari qaruvchilar kengashiga raislik O‘zbekistonga o‘tgani bilan tabrikлади. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirish

doirasida keng ko‘lamli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zbekiston

bankning mintaqadagi eng yirik hamkori bo‘lib qolmoqda — qo‘shma loyihalar portfeli 15 milliard dollardan oshdi. Shuningdek, “yashil” energetika, transport, raqamli transformatsiya, ta’lim va boshqa yo‘nalishlarda umumiy qiymati 3 milliard dollardan ziyod loyihalar ishlab chiqilmoqda. Suveren bo‘lmagan moliyalashtirish mexanizmlari faol joriy etilmoqda.

OTB Boshqaruvchilar kengashining 2026-yil may oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan yillik yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti bo‘ljajak tadbir doirasida OTB bilan Kengaytirilgan strategik sheriklik dasturini imzolash, unda infratuzilmani rivojlantirish, texnik va muhandislik kadrlarini tayyorlash, xotin-qizlar va yoshlarni yangi kasblarga o‘qitish, kambag‘allikni qisqartirish, ipoteka bozori va xususiy sektorni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratish tashabbusini ilgari surdi.

Bankning yirik milliy va mintaqaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashda, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida transport, energetika va savdo loyihalarini ilgari surishda faol ishtirok etishi muhim ekani ta’kidlandi.

OTB prezidenti Masato Kanda mamlakatimizdagi keng ko‘lamli yangi-lanishlar natijalarini yuksak baholadi hamda Yangi O‘zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashishga tayyorligini bildirdi.

O‘ZA

KUZ-QISH MAVSUMIDA AHOI KO‘MIR BILAN KAFOLATLI TA‘MINLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ko‘mir qazib chiqarishda erishilgan natijalar va kelgusi vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Kuz-qish mavsumida aholi xonadonlari, ijtimoiy soha muassasalari hamda iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan uzaksiz ta’minlash maqsadida energetikaning barcha tarmoqlari qatori ko‘mir sanoatida ham yangi loyihalar amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari va hajmlari ko‘paytirilmoqda.

2024-2025-yillar kuz-qish mavsumida qariyb 8,7 million tonna ko‘mir qazib olinib, issiqlik elektr stansiyalari, byudjet tashkilotlari va aholiga yetkazib berildi.

Taqdimotda 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumida 10 million tonna ko‘mir ishlab chiqarish rejalashtirilgani ma’lum qilindi. Buning uchun “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik

jamiyati korxonalarining moddiy-texnik bazasi kuchaytirildi, sohada qo‘shimcha ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun sharoitlar yaratildi.

Prezidentimiz mavsum davomida aholini ko‘mir bilan kafolatli ta’minlash yuzasidan ko‘rsatmalar berdi. Korxonalarni modernizatsiya qilish va yangi ishlab

chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, sohada bozor tamoyillari hamda raqobatni rivojlantirib, mahsulot tannarxini tushirish muhimligi qayd etildi.

Taqdimotda uran yo‘nalishidagi yangi investitsiya loyihalarini jadallashtirish, geologiya-qidiruv ishlarining ko‘lamini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

Tadbir

“INSON FAXRI” MILLIY MUKOFOTI

EZGULIKNING OLIY KO‘RINISHI

Insonni e’zozlash, qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashish mamlakatda tinchlik va birdamlikka xizmat qiladi. “Inson faxri” milliy mukofoti tez o‘zgarib borayotgan zamonda jamiyatning barqaror rivojiga hissa qo‘shayotgan, insonparvarlik va fidoyilik tamoyillariga sodiqligi, kasbiy hamda shaxsiy faoliyati bilan boshqalarga namuna bo‘layotgan yurtdoshlarimizni rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan. Mukofot orqali aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat, insoniylik va yordam ko‘rsatish madaniyatini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida mamlakatimizda ilk bor ta’sis etilgan “Inson faxri” milliy mukofotini tantanalı topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda tegishli vazirlik va idoralar xodimlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari qatnashdi.

Jamiyatda insonparvarlik qadriyatlarini qaror toptirish, aholini ezgulik va hamjihatlik ruhida birlashtirish “Inson faxri” milliy mukofotining ustuvor maqsadidir. U orqali fidokorona mehnati va sadoqati bilan mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo‘shayotgan yurtdoshlarimizni munosib taqdirlash, ular faoliyatini keng jamoatchilikka yetkazish, turli sohalaridagi ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, mehr-oqibatni o‘z hayotiy shioriga aylantirgan yurtdoshlarimizni e’tirof etish, bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zadigan insonlarni xalqqa tanitish, ular orqali jamiyatning boshqa a’zolarining ijtimoiy

faolligini oshirish ko‘zda tutilgan. Odamlar hayotini o‘zgartirishga qodir fidokorona sa’y-harakatlarni rag‘batlantirish, qahramonlik va jasorat namunasini targ‘ib qilish o‘zaro ishonch va hamjihatlikni kuchaytiradi. Qalblarda mehr-shafqat, halollik va sadoqat kabi fazilatlarning qaror topishiga xizmat qiladi.

Tadbirda shifokorlar, o‘qituvchilar, ijtimoiy xodimlar, ko‘ngillilar, qutqaruvchilar, ijodkorlar va turli yo‘nalishlarda samarali faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimizning hayot yo‘li va xizmatlari e’tirof etildi. Taqdirlash marosimida 11 yo‘nalish bo‘yicha g‘oliblar aniqlanib, ularga maxsus statuetka va sertifikatlar topshirildi. Jumladan, “Yil shifokori” nominatsiyasi yuksak professional mahorati uchun Toshkent davlat tibbiyot universiteti Bolalar ko‘p tarmoqli klinikasi kardioxirurgiya bo‘limi kardiolarrohi Bobur To‘rayevga nasib etdi.

▶ Davomi 2-betda

MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON: YANGI FORMATDAGI HAMDO‘STLIK

2025-yil 13-17-noyabr kunlari poytaxtimiz Toshkent yana muhim tarixiy voqealarga mezbonlik qildi. Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Kun tartibida turgan qator dolzarb masalalar va kelajakdagi rejalarining muhokamasi va qabul qilingan qarorlar bilan bir qatorda yig‘ilishda Ozarbayjon Respublikasi Maslahat kengashining to‘laonli a‘zoligiga qabul qilindi.



Shunday qilib, Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz yagona tashkilotda birlashdi. Natijada Yaqin Sharq hamda Yevropa bozorlariga chiqish uchun transport yo‘laklarini rivojlantirish imkoniyati kengaydi.

Tarixi, madaniyati, dini, ma’rifiy merosi musharak bo‘lgan ushbu davlatlar hamdo‘stligi, albatta, mintaqada tinchlikni barqarorlashtirish va hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Maslahat uchrashuvi kunlari O‘zbekiston yetakchisining tashabbusi bilan barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazida “Markaziy Osiyo: umumiy madaniy-ma’rifiy meros, umumiy kelajak” xalqaro

kongressi o‘tkazildi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati (WOSCU), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Markaziy Osiyo Xalqaro instituti hamkorligida tashkil etilgan kongress ishida O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondan ilm-fan, ta’lim, madaniyat, din, adabiyot va san’at namoyandalaridan 300 ga yaqini ishtirok etdi.

▶ Davomi 3-betda

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI TIZIMI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YO‘LGA QO‘YILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish va migratsiya jarayonlarini xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yish masalalari yuzasidan axborot berildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarni mehnat qilish uchun chet elga tartibli jo‘natish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tufayli mehnat bozori diversifikatsiya qilinmoqda, fuqarolar asosan yuqori maoshli ish o‘rinlarida ishlash uchun xorijga ketmoqda. Natijada 2016-yilga nisbatan chet elda ishlayotgan fuqarolarning soni kamaygan bo‘lsa-da, ular tomonidan yuborilgan mablag‘ 3,8 milliard dollardan 2025-yilning o‘n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetdi.

Taqdimotda xorijiy mehnat bozorida malakali mutaxassislarga katta talab borligi qayd etildi. Hozirda 140 ming nafar mutaxasssiga buyurtma mavjud, ammo til va kasbiy malaka bo‘yicha talablarga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash borasida qilinadigan ishlar hali ko‘pligi ko‘rsatib o‘tildi. Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi xizmatlari tarqoq bo‘lgani uchun odamlar ovoragarchilikka duch kelmoqda.

Shu maqsadda sohadagi xizmatlarni tartibga solish, barcha jarayonlarni “yagona darcha” tamoyili asosida birlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Toshkent shahri Uchtepa tumanida “Xorijga ishga tayyorlash markazi”, Termiz shahrida “Yagona migratsiya xizmatlari” markazi tashkil etiladi. Poytaxtning Yashnobod tumanida esa xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda nemis va yapon tillariga o‘qitish maktablari ochiladi.

So‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlariga migratsiya oqimi 4 barobar ko‘paygani ta’kidlandi. U yerda ishlayotgan fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish muhimligi qayd etildi. Ayni paytda qator Yevropa davlatlari bilan mehnat migratsiyasi bo‘yicha kelishuvlar mavjud emas. Prezident tomonidan tegishli hukumatlararo hujjatlarining imzolash ishlarini jadallashtirish bo‘yicha topshiriq berildi.

O‘ZA



ISLOM OLAMINING QADRIN QASRI BU!

Ulug‘vor binolar yurtga yuz bo‘lgay, Ajdoddan avlodga yorug‘ iz bo‘lgay, Ko‘rganda yashnagan qancha ko‘z bo‘lgay, Yangi O‘zbekiston bitta jismi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Bino buniyod bo‘lar jon oromiga, Boshqasi bo‘y cho‘zar shon oromiga, Bu qasr kavsardir aql joniga, Qurishda o‘zbekning yangi asri bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Bunda buyuklarning ruhi ustuvor, Imom Buxoriyning nomin nuri bor, Kim qalb ko‘zin ochsa takror va takror, Ajdodga munosib elning nashi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Ulug‘ Termiziyalar, bobo Naqshband, Ibn Sino o‘ylagan orzuga monand, Shonli Beruniyning shoniga payvand, O‘lmas daholarning hayot darsi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Tarix tilga kirs, olam uyg‘onar, Quvonch uyg‘onadi, alam uyg‘onar, Bu dargohga kirgan odam uyg‘onar, Millat muordining asriy asli bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Qur‘on qudratini ko‘rmoq bo‘lganlar, O‘zbek ibratini ko‘rmoq bo‘lganlar,

Iymonida sobit turmoq bo‘lganlar, Elim ma‘rifatin so‘nmas shamsi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Qadim tarix din ilmin rosti shunda, Birinchi Renessans bo‘y-basti shunda, Ikkinchi Renessans nur dasti shunda, Shonli o‘tmishimiz ilmiy ismi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Bunda bugunimiz kamoli bordir, Uchinchi Renessans a‘moli bordir, Yorug‘ kelajakning iqbolı bordir, O‘zbek o‘zligining ko‘klam fasli bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Ulug‘lar nazari tushgan Vatan bu, Dinu diyonatda ulkan chaman bu, Shukrimiz shaklida she‘riy suxan bu, Uch ming yillik tarix tiniq nashi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Bu ochiq kitobdir, islom kitobi, Olam orzu qilgan ilm shitobi, Yurtboshi niyatın jonbaxsh oftobi, Yangi O‘zbekiston yangi vasi bu, Islom olamining qadrin qasri bu!

Mahmud TOIR, Oliy Majlis Senati a‘zosi, O‘zbekiston xalq shoiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar

Mamatqul HAZRATQULOV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

BIRLASHGAN — O‘ZAR

barcha sa'y-harakatlar zahirida osuda hayot va farovonlik mujassam

Bugungi shiddatli, alg‘ov-dalg‘ov davrda o‘z e‘tiqodida, so‘zida sobit turish, har qanday vaziyatda ham qat‘iy pozitsiyasiga ega bo‘lish va uni himoya qilish juda muhim. Albatta, bu oson emas. Ana shunday fazilatlariga ega kishilar hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘ladi. Bu nainki oddiy odamlar, balki davlatlarga ham tegishli.

Kuz fasli, ya‘ni sentyabr, oktyabr, noyabr oylaridagi voqealarga nazar solaylik. Prezidentimiz sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 80 yillik yubileyi sessiyasida ishtirok etdi va nutq so‘zladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, davlatimiz rahbari ushbu xalqaro tashkilot minbarida bu gal ham o‘zbek tilida — ona tilimizda gapirdi. Buning zahirida katta ma‘no-mazmun bor. Bu bilan Prezidentimiz ona tilimiz nihoyatda boy, go‘zal, jarangdor, nafis til ekanini yana bir karra namoyon etdi. Bu o‘sha xalqaro anjumanda ishtirok etgan barcha davlatlar vakillari ongiga singdi. Bu g‘ururimizni oshiradi, qalbimizni iftixor bilan to‘ldiradi.

Buning sabablari ma‘lum: sobiq ittifoq davrida BMT u yoqda tursin, o‘z yurtimizda

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



— O‘zbekistonimizda bo‘ladigan majlislaru turli tadbirlarda ona tilimizda gapirilmay edi. Rasmiy tadbirlar tugul uch-to‘rt kishining o‘zaro g‘urunglarida ham, ulardan biri boshqa millat vakili bo‘lsa, o‘shaning tilida suhbat qurishga majbur edi. Shunday ekan, jahonning eng oliy tashkiloti, agar shunday deyish joiz bo‘lsa, minbarida ona tilimiz jaranglashi tarixiy voqea. Zero, har qanday davlatning mustaqilligini belgilovchi muhim omillardan biri uning tilidir.

Bu voqeaning ahamiyatini barcha yurtdoshlarimiz teran anglab yetmaganga o‘xshaydi. Negadir shunaqa unutilmas, tarixiy voqea sifatida qayd etiladigan hodisalarga

bir oz e‘tiborsiz qaraymiz, go‘yo har doim shunday bo‘lib kelgandek. Holbuki, bundan barchamiz birday sevinmog‘imiz kerak, hatto bir-birimizni qutlasak ham arziydi. Uning o‘miga har xil mayda-chuydalar, maishiy masalalar haqida gapiramiz, yozamiz, shular yuzasidan bahslashamiz.

Prezidentimizning AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan uchrashuvi va unda kelishilgan masalalar, BMT Bosh Assambleyasining 80 yillik yubiley sessiyasi doirasida AQSHning yetakchi korporatsiyalari va banklari rahbarlari bilan muloqotlarda erishilgan natijalarga ko‘ra, umumiy qiymati 100 milliard dollardan ortiq shartnomalar va

istiqbolli loyihalar shakllantirilgani haqida yozildi, gapirildi, ularning natijalari haqida hali ko‘p yoziladi, gapiriladi.

UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi so‘nggi qirq yilda birinchi marta tashkilotning Parijda joylashgan qarorgohidan tashqarida — qadimiy Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan tom ma‘nodagi tarixiy voqeadir. Bu xalqaro anjuman ham davlatimiz rahbarining tashabbusi va sa'y-harakati bilan amalga oshirildi. Unda 180 dan ziyod mamlakatdan 4600 vakil ishtirok etdi. Ushbu anjuman UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyalarida eng ko‘p vakil qatnashgan tadbir sifatida e‘tirof etildi.

Bu bejiz emas. Samarqandga kelganlar UNESCO tadbirlarida qatnashish bahonasida qadimiy kentimizning noyob me‘moriy obidalari va zamonaviy Samarqandni, bu yerdagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rib ketadi. Sohobgiron Amir Temur saltanatining poytaxti bo‘lgan Samarqandni ziyorat qilish dunyodagi har bir ma‘rifatli insonning orzusidir. Bu shaharga keluvchilar soni yildan yilga ko‘payib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

UNESCO sessiyalarida Samarqandning yoshi 3000 yildan ziyod ekan e‘tirof etilgani ham bejiz emas. Prezidentimiz UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi ochilish marosimida qayd etganidek, bunday nufuzli anjumaning Samarqandda o‘tkazilgani UNESCOga a‘zo davlatlarning yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli, jadal islohotlar va ularning natijalarini ko‘rishga qiziqishi, ishonchi ortib borayotganidan dalolatdir.

Ikki hafta davomida Bosh konferensiya sessiyasi majlislari bilan bir qatorda 150 dan ziyod seminarlar, konferensiyalar, xalqaro ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar bo‘lib o‘tdi. UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasida bir necha muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Butunjahon turkiy tillar kunini ta‘sis etish to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilindi. Bu butun turkiy xalqlari (ular 200 milliondan ziyod) quvontirdi. Ushbu masala Bosh konferensiya sessiyasi kun tartibiga Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston tomonidan UNESCOga a‘zo 21 davlat qo‘llab-quvvatlashi orqali kiritilgan. Ushbu tarixiy qaror aynan Samarqandda qabul qilingani ham davlatimizning xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib borayotganiga yana bir yorqin misoldir. Endi barcha turkiy tili xalqlar har yili 15-dekabrda ushbu kunni bayram sifatida nishonlaydi.

Samarqandda o‘tgan ushbu nufuzli anjumanda mazkur xalqaro tashkilotning

yangi Bosh direktori saylandi. Ushbu lavozimga misrlik olim va siyosiy arbob Xolid al-Ananiy saylandi. Prezidentimiz 12-noyabr kuni Xolid al-Ananiy qabul qildi va uni yangi lavozim bilan tabriklab, kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyat tiladi. 2017-yildan buyon UNESCOga rahbarlik qilib kelgan Odri Azule xonim Prezidentimiz farmoniga binoan O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida fan, ta‘lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash, xalqimizning boy madaniy merosini keng ommalashtirish ishlariga qo‘shgan katta hisssasi uchun davlatimizning “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Kuzning so‘nggi oyida mamlakatimizda yana bir tarixiy voqea ro‘y berdi. 13-noyabr kuni O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Markaziy Osiyo: umumiy ma‘naviy-ma‘rifiy meros — umumiy kelajak” mavzusida xalqaro kongress bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz kongress ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi. Unda, jumladan, bunday deyiladi: “Mazkur anjuman yangi barpo etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘lib o‘tayotgani albatta bejiz emas. Ushbu muazzam majmuada uch ming yildan ziyod shonli tarix, jumladan, mintaqamiz zaminidagi Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarini, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning bugungi taraqqiyoti va kelajagini mujassam etgan noyob intellektual-ma‘naviy maskanda Sizlar bu haqiqatni yaqqol his qilishingiz mumkin”.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu markazda islom sivilizatsiyasiga oid noyob manbalar, ilmiy tadqiqot va ta‘lim yo‘nalishlari jamlangan. Milliy me‘morlik an‘analari va zamonaviy arxitektura uyg‘unligida barpo etilgan mazkur mahobatli majmuaning to‘rt tomonida 34 metrli peshtoqlar, o‘rta qismida 65 metrli gumbaz qad rostlagan.

Xalqaro kongress qatnashchilari ushbu markaz zallarini hayrat va havas bilan tomosha qildi. Zamonaviy texnologiyalar asosida tarix “jonlantirilgani” mehmonlarni mezbondan lol qoldirdi. Markazdagi ma‘lumotlar sharoitlarni ko‘rgan kishi mo‘jizalar olamiga tushib qolganday his etadi o‘zini. Darhaqiqat, bu yerdagi har bir zalda, har bir yo‘lakda, qisqasi, har qadamda mo‘jizaga duch kelasiz...

Ma‘lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati yo‘lga qo‘yilgan edi. Mazkur Maslahat uchrashuvining yettinchi 15-16-noyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvga raislik qilgan Prezidentimiz mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha qator muhim takliflarni ilgari surdi. Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘la huquqli a‘zo sifatida qabul qilindi.

BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Koxa Imnadze BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning murojaatini o‘qib eshittirdi.

Uchrashuv arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” sarlavhali maqolasi e‘lon qilindi. Unda mintaqamiz davlatlarining o‘zaro hamkorligi natijalari aniq misollar asosida tahlil qilingan, kelgusidagi vazifalar belgilab berilgan. Maqolada, jumladan, bunday satrlar bor: “Maslahat uchrashuvlari formati yo‘lga qo‘yilgan 2017-yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko‘p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va munozam muloqotni boshladilar. Bu ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy tafakkur ramziga aylandi. Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o‘tishga erishildi”.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy uchrashuvlari, o‘zaro ochiq muloqotlari naqadar yuksak natijalar berayotganini, ular mintaqamiz aholisi manfaatini xizmat qilayotganini xalqlarimiz o‘z hayotida ko‘rib turibdi. Bu hamkorlik davlatlarimiz taraqqiyotida ham o‘z ifodasini topmoqda. Zero, xalqimizning “Birlashgan o‘zar” degan hikmatida teran ma‘no-mazmun mujassam.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari — Shavkat Mirziyoyev, Qosim-Jomart Toqayev, Imomali Rahmon, Sadir Japarov va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 15-noyabr kuni Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmonlar “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans”, “Ikkinchi Renessans” va “Yangi O‘zbekiston — yangi Renessans” bo‘limlarini ko‘zdan kechirdi.

Qisqasi, bu yilgi kuz mamlakatimiz hayotida unutilmas, tarixiy voqealarga boy bo‘ldi. Shuni ayonki, tinchlik-xotirjamlik bor yurtda ana shunday quvonarli, butun jahon e‘tiborini tortadigan va havasini keltiradigan tadbirlar o‘tkaziladi. O‘zbekistonimiz ana shunday yurt — “olamni mahliyo aylagan diyor” (A.Oripov). Shuning uchun bu yurtda taraqqiyot bor, kelajakka ishonch bor. Bu yurtda barcha sa'y-harakatlar inson manfaatlariga, uning baxtli, farovon yashashiga yo‘naltirilgan.

Tadbir

“INSON FAXRI” MILLIY MUKOFOTI EZGULIKNING OLIIY KO‘RINISHI

Boshlanishi 1-betda

Hozirgacha mingdan ortiq jarrohlik amaliyotini bajargan bolalar kardioxirurgi bu yil avgustda olti yoshli bolada yurak bo‘yicha kamyob operatsiya o‘tkazgan.

— Bolaning yuragidagi zararlangan uch tavaqli klapani olib tashlab, o‘miga yurakning o‘ng bo‘lmachasi quloqchasidan klapan yasash amaliyotini o‘tkazgandik. O‘zbekistonda ilk bor amalga oshirilgan bu murakkab operatsiya muvaffaqiyatli o‘tdi. Bemor bola tez sog‘ayib, kundalik hayotga qaytdi, — deydi shifokor. — Yaqinda Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan “Shuhrat” medaliga munosib ko‘rildim. Navbatdagi e‘tirof, albatta, meni quvontirdi. Shu bilan birga, zimmamga katta mas‘uliyat yuklamog‘da. Bu mukofot faoliyatimizni yanada takomillashtirib, mamlakatimiz tibbiyotini yuqori darajaga ko‘tarishga ruhlantiradi.

Ko‘p yillik namunali mehnati va odamlarga beg‘araz yordami uchun, xususan, zo‘ravonlikka uchragan ayollarni himoya qilish maqsadida maxsus “Rahmdillik” boshpanasi tashkil etgan shifokor Bibisora Aripova “Mehru yo‘li” nominatsiyasiga loyiq ko‘rildi. Shuningdek, “Shaxsiy yutuq” nominatsiyasi bilan 23 yoshli pedagog, xalqaro kimyo olimpiadasining kumush

medali sovrindori Mohira Boltayeva taqdirlandi. Bugun uning o‘quvchilari ham xalqaro olimpiadalarda yuksak natijalarga erishmog‘da.

G‘oliblar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Muhimi, ularning har biri fidoyilik, mehr-muhabbat, ezgulik timsoli bo‘lib gavdalandi. Sovrindorlarga “Inson faxri” milliy mukofoti statuetkasi, diplomati va 20 million so‘m pul mukofoti topshirildi.

Tadbir doirasida nomzodlar hayoti va faoliyati haqida tayyorlangan hujjatli videolavhalar namoyish etildi. Dilbar kuy-qo‘shiqlar yig‘ilganlar kayfiyatiga xushnudlik ulashdi. Qahramonlik va insonparvarlik ko‘lami, uning jamiyatdagi o‘rni haqidagi fikr-mulohazalar ishtirokchilar qalbidagi mehr-shafqat, halollik va sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirdi.

Tantanal marosimida Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy himoya bo‘yicha maslahatchisi — Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorov, Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva ishtirok etdi.

**Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Kun mavzusi

Dunyo jamoatchiligi diqqatini bir nuqtada jamlash, hech bo‘lmaganda, bir yilda bir marta xalqaro hamjamiyat e‘tibori markazida bo‘lish bugun ham ko‘pchilik davlatlar uchun katta maqsad. Zero, dunyo nigohi unga qadallishi uchun shunga arzigulik voqealik bo‘lishi zarur. Bu zaruratning ahamiyati shundaki, xalqaro e‘tibor bugungi notinch, iqtisodiy beqarorlik zamonida o‘sha zaminning tinchlik va taraqqiyoti barqaror ekanidan dalolat beradi. Yangi hamkorlar topish, yirik loyihalarni boshlash, yanada taraqqiy etish uchun zamin yaratadi.

Zebiniso RAHMONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Shu ma‘noda, keyingi paytlarda mamlakatimiz nafaqat xalqaro jamoatchilik e‘tiborini o‘ziga qaratayotgani, balki dunyo “Yangi O‘zbekiston ruhi” bilan yashayotgani ko‘p yaxshi jihatlardan dalolat beradi. Uzoqqa bormaylik, oxirgi yigirma kun nari-berisida yurtimizga 10 ga yaqin davlat Prezidentlari, ko‘plab xalqaro tashkilotlar rahbarlari tashrif buyurdi. Ular bilan turli



O‘ZBEK KELAYOTIR TARIX QA‘RIDAN...

formatlarda o‘tkazilgan muloqotlarda tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlashga doir ko‘plab kelishuvlarga erishildi, muhimi, bu jarayon uzviy davom etmoqdaki, dunyo O‘zbekistondan nigohini uza olmayapti.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi fikrimizga yaqqol misol. Zero, uchrashuv mintaqaning keyingi taraqqiyoti, do‘stlik va birodarlik aloqalari mustahkamligi, davlatlarning teng imkoniyati, o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi bosqichga chiqishiga xizmat qiluvchi qaror va kelishuvlarga boy bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari sammit avvalida Ozarbayjon Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘la huquqli a‘zo sifatida qo‘shilganini mamnuniyat bilan e‘lon qildi. Ushbu qaror ham mintaqa rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mohiyatan biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida mustahkam ko‘prik barpo etmoqdamiz, hamkorlikning yagona makonini shakllantirishga yo‘l ochmoqdamiz. Bu ikki mintaqaning strategik bog‘liqligi va barqarorligini kuchaytirishi shubhasiz”, dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, keyingi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarining qardosh Ozarbayjon bilan munosabatlari mustahkamlandi. Jumladan, mintaqani Yevropa bilan bog‘lovchi o‘rta yo‘lak — Transkaspий transport yo‘lagi o‘tkazuvchanligini oshirish borasida o‘zaro hamkorlikda samarali ishlar qilinayapti.

O‘zbek va ozarbayjonlarni ming yillik do‘stlik-birodarlik, qardoshlik aloqalari bog‘laydi. Davlatlarimiz umumiy tarix, til va madaniy merosga ega. Bu ham xalqlarimizning inoqligiga hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. 2022-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar strategik

sherklik darajasiga ko‘tarildi. Bunda ikki davlat Prezidentlarining sa'y-harakatlari muhim rol o‘ynaydi.

2020-yilda uzoq vaqt urush o‘chog‘i bo‘lib kelgan Qorabog‘ hududida qayta tiklash boshlandi. Bu savbali ishlardan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston hukumati ham chetda qolmadi. Xususan, O‘zbekistonning moddiy-ma‘naviy ko‘magi bilan 2023-yil avgust oyida Fuzuliy shahrida 600 nafarga yaqin o‘quvchi tahsil oladigan Mirzo Ulug‘bek nomidagi maktab qurildi. Davlatimiz rahbarining Ozarbayjonga oxirgi tashrif doirasida esa Boku shahrining Oqshahar mavzesida “O‘zbekiston” bog‘iga tamol toshi qo‘yildi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqa tinchligi, hamkorligi va taraqqiyoti rivojini yangi bosqichga olib chiqishga asos bo‘luvchi qarorlar qabul qilingani, davlatlarimiz o‘rtasida o‘zaro ishonch muhitini yanada kuchaytirishga zamin yaratgani bilan ahamiyatli.



Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda. Bu — o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan jarayon emas, balki umumiy taqdiri va birgalikda taraqqiy etish salohiyatini anglab yetgan mamlakatlarimiz yetakchilarining aniq maqsadga qaratilgan sa‘y-harakatlari va siyosiy irodasi natijasidir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

“O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning xalqlarimiz diniy va milliy qadriyatlariga qaratgan yuksak e‘tibori va sadoqati timsoli bo‘ldi.



Firdavs ABDUXOLIQOV,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Prezidentining kongress ishtirokchilariga yo‘llagan qutlovi tadbir ishtirokchilarini to‘lqinlantirib yubordi. Unda, jumladan, bunday deyilgandi:

“Bugungi murakkab davrda, dunyoda ziddiyat va mojoralar kuchayib borayotgan bir paytda, tarixdan saboq olish, tinchlik va barqarorlikni asrash, barcha sohalarda ilm va ma‘rifatga tayanish, xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik muhitini mustahkamlash hamda sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish eng dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Ishonchim komilki, mamlakatlarimiz o‘rtasida do‘stlik va sheriklik aloqalarini mustahkamlash, gumanitar hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan bugungi forum ilmiy va madaniy muloqot uchun samarali maydonga aylanadi”.

Ozarbayjon madaniyat vaziri Odil Karimlining aytishicha, O‘zbekiston Prezidentining xalqaro kongress ishtirokchilariga yo‘llagan murojaati ilm-ma‘rifatning bugungi hayotimizdagi o‘rnini ta‘kidlovchi kuchli va ruhlantiruvchi eslatma bo‘ldi. Ma‘naviy merosni asrab-avaylash va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga urg‘u berilishi Ozarbayjonning rasmiy pozitsiyasiga to‘liq mos keladi. Xalqaro kongress mamlakatlarimiz ilmiy va madaniy hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishini yana bir bor tasdiqladi. Forum natijalari qo‘shma tashabbuslarga, gumanitar aloqalarni mustahkamlashga yangicha sur‘at bag‘ishladi.

Kongress xalqaro tashkilotlar, diplomatik korpus, ilmiy va madaniy muassasalar vakillarini, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Ozarbayjondan kelgan olimlar va san‘at arboblari yagona platformaga chorladi.

— O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilishi tarixiy voqeadir,



MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJON: YANGI FORMATDAGI HAMDO‘STLIK

— deydi Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Arxeologiya va antropologiya instituti rahbari Farhat Guliyev. — Bu yerda umumiy madaniyatimiz chuqur ilm-fan va ta‘limga asoslanganini ko‘rdik. Men O‘zbekiston Prezidentiga har doim tan berganman. Uning tashabbusi bilan butun turkiy dunyoda yangi Uyg‘onish davri boshlanmoqda. Hozir umumiy maqsadimiz bu markaz orqali o‘zbek, ozarbayjon, qozoq, turkman, tojik va qirg‘iz yoshlari o‘zlarini yagona madaniy makon va yagona mafkuraning bir qismi deb bilishi uchun ularni integratsiyalashtir. Qoraxoniylar davridan to Saljuqiylargacha bo‘lgan buyuk merosimizni o‘rganishda hamkorlik qilish, hissa qo‘shishga tayyormiz. Markazning maqsadlari juda egru va biz ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Uch kun davom etgan ushbu nufuzli anjumanda 30 dan ortiq tadbir, uchrashuv, davra suhbatlari, sho‘ba yig‘ilishi, ko‘rgazma, namoyish, taqdimotlar o‘tkazildi.

Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyalari bilan tanishuv, yalpi hamda seksiyalarda o‘tkazilgan yig‘ilishlarda yangragan fikrlar hamda takliflar qardosh respublikalar ziyolilari vakillaridagi umumiy madaniy-ma‘rifiy meros, umumiy tarixga daxldorlik tuyg‘ularini yanada mustahkamladi, samimiy fikr almashinuvlar, kelajakda hamkorlikda amalga oshiriladigan ilmiy-amaliy rejalarni tuzishga keng imkoniyat yaratdi.

Tadbir ishtirokchilarining fikrlari buni yaqqol tasdiqlaydi.

— Ushbu kongress qadimdan Markaziy Osiyoning buyuk san‘at va madaniyat arboblari ilhomlantirgan va birlashtirgan buyuk umumiy ma‘naviy merosimizni butun dunyoga eslatish uchun chinakam noyob va tarixiy imkoniyat bo‘lganiga chin dildan ishonaman, — dedi Qozog‘iston Milliy Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Asqar Jumadilayev. — Prezident Shavkat Mirziyoyev alohida ta‘kidlaganidek, mintaqamiz hamisha jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan va madaniyatining muhim markazi bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ana shu bebaho madaniy an‘analarni asrab-avaylash, xalqlarimiz o‘rtasidagi qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini izchil mustahkamlash yo‘lida kuchlarimizni birlashtirish zarurligini davrimiz o‘zi taqozo etayotir.

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo: yagona

ma‘naviy-ma‘rifiy meros — umumiy kelajak” xalqaro kongressi ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida bildirilgan fikrlar yuksak e‘tirofqa molik, — deydi Tojikiston madaniyat vaziri Matlubaxon Sattoriyov. — Unda mintaqamizning asosiy qadriyatlari — tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik, sivilizatsiyalararo muloqotni mustahkamlash masalalari yaqqol aks etgan. 300 dan ortiq olim, tadqiqotchi va madaniyat arbobi jamlagan kongress umumiy ma‘naviy merosimizni asrab-avaylash borasidagi musharak muhokamalar uchun muhim maydon bo‘ldi. Ishonchim komilki, forum natijalari mintaqamiz mamlakatlari o‘rtasida madaniy hamkorlikni mustahkamlash, yangi loyihalar ishlab chiqish, ta‘lim sohasidagi



umumiy tashabbuslarni ilgari surish uchun xizmat qiladi.

15-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvida qatnashayotgan Prezidentlar O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida musulmon olamlarining bebaho ma‘naviy durdonasi — Usmon Mus‘hafi saqlanayotgan Qur‘oni karim zali, Islomdan

avvalgi davr, Birinchi Renessans, Ikkinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston ekspozitsiyalari bilan tanishdi.

Tashrif davomida ushbu markaz islom sivilizatsiyasining bebaho merosini asrab-avaylash va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan noyob manbalar, ilmiy tadqiqot va ta‘lim yo‘nalishlarini bir joyga jamlagan ilk majmua ekanini yana bir bor ta‘kidlandi. Qardosh mamlakatlar yetakchilari mintaqamiz mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, ma‘naviy-ma‘rifiy loyihalarni ilgari surish va umumiy gumanitar qadriyatlarni rivojlantirish muhimligini qayd etdi.

O‘zbekistonning mintaqaning boy umumiy merosini saqlash va targ‘ib qilish borasidagi

etilishi dinimizning chinakam ma‘noda ilm-ma‘rifat, bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalarni yaqqol namoyon etadi.

— Hozir xalqlarimizning tarixiy-madaniy merosiga tayangan holda mintaqaviy o‘zlikni mustahkamlash juda muhim, — dedi Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev. — Islom sivilizatsiyasi — ulkan, nodir, ilmiy, turistik va etnomadaniy loyihadir. O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan ochilgan ushbu markaz Toshkentda muhim ilmiy tadqiqotlar uchun umumiy maydonga aylanishi mumkin.

Shu kuni Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon Prezidentlari Prezidentimiz qarori bilan ta‘sis etilgan “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti sovrindorlarini taqdirlash marosimida ham ishtirok etdi.

Ushbu xalqaro mukofot adabiyot, madaniyat, san‘at, fan, ta‘lim va raqamli texnologiyalar sohaslarida katta yutuqlarga erishgan mahalliy va xorijiy ijodkorlarni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Hay‘at qaroriga ko‘ra, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi, Qirg‘iziston xalq yozuvchisi Sulton Rayev “Adabiyot”, Tojikiston xalq shoiri Davlat Safarzoda “Madaniyat”, M. Avezov nomidagi Qozog‘iston Milliy drama teatri aktyori Yerkebulan Dayirov “Teatr va kino”, Ozarbayjon xalq artisti Olim Qosimov “Musiqi va raqs”, Turkmaniston xalq artisti Babasari Annamiradov “Tasviriy va amaliy san‘at”, O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi xalqaro markaz direktori o‘rinbosari, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Dilfuza Egamberdiyeva “Fan, ta‘lim va raqamli texnologiyalar” nominatsiyalarida tanlovning ilk g‘oliblari bo‘ldi.

Yetakchilar huzurida laureatlariga mukofot statuetkasi, diplom hamda 10 ming dollarlik pul mukofoti topshirildi. Davlat rahbarlari sovrindorlar bilan surathga tushdi.

Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon o‘zining qadimiy tarixi, betakror madaniyati va boy ma‘rifiy merosi bilan dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallaydi. Bu haqiqat Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi va xalqaro kongress davomida bir necha bor ta‘kidlandi.

Bu kongressni insoniyat sivilizatsiyasidagi chinakam muhim voqea deb bilaman,

— dedi Qozog‘iston Milliy qizlar pedagogika universiteti Seyfulla nomidagi ilmiy kutubxonasi direktori o‘rinbosari Lapo Petr. — O‘rta asr Yevropasi qadimgi dunyo haqidagi bilimlarni aynan shu yerdan, Markaziy Osiyodan olgan. Shu bois, islom madaniyati va sivilizatsiyasi g‘oyalari butun dunyoda to‘g‘ri tushunilishi uchun uni targ‘ib qilish bugungi kunda juda muhim. O‘zbekiston Prezidentining madaniyat, san‘at, adabiyot va umuman, butun islom olami rivojiga yangicha turki bergan bu tashabbusi menda, ayniqsa, katta taassurot qoldirdi. Ishonamanki, Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati xalqlarning bir-birini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi va shu orqali butun insoniyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

“Markaziy Osiyo: umumiy madaniy-ma‘rifiy meros, umumiy kelajak” xalqaro forumi mintaqamiz mamlakatlari birdamligi, umumiy qadriyatlarini mustahkamlash va kelajak avlodlar uchun buyuk kelajak yaratish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Salkam 100 million aholiga ega mintaqamiz xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik rishtalari tobora mustahkamlanib borayotgani Prezidentimizning keng ko‘lamli tashabbusi, sa‘y-harakatlarining amaliy natijasi bo‘ldi.

Ta‘kidlash joizki, Markaziy Osiyo va Ozarbayjon miqyosida ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat, adabiyot va san‘at, fan-ta‘lim va axborot texnologiyalari vakillari ishtirokida bu qadar yirik anjuman ilk bor o‘tkazildi. Anjuman nihoyasida kongress ishtirokchilari tomonidan maxsus deklaratsiya qabul qilindi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi eshiklari nafaqat O‘zbekiston, balki xorijlik olimlar, mutaxassislar uchun ham doimo ochiq bo‘lishi, bu yerda ilmiy tadqiqotlar qilish, o‘zaro hamkorlik uchun barcha sharoitlar yaratilishini ta‘kidlagan edi. Bugun ana shu fikrlar ro‘yobini ko‘ryapmiz.

Ishonch bilan aytish mumkinki, dunyoda o‘zaro qarama-qarshiliklar, turli diniy, milliy, siyosiy ziddiyatlar davom etayotgan bir paytda mintaqamizda barcha jabhalarda hamkorlik va birdamlikning qaror topishi mamlakatlarimiz taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘z ishini yakunlagan kongress hamda ana shu hamkorlik va hamjihatlik ifodasi bo‘ldi.

Munosabat



Xolmatjon KOMILOV,
Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashi raisi

Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlarni bir-biriga bog‘laydigan rishtalar ko‘p. Bir daryodan suv ichgan ellarimizning milliy va diniy qadriyatlari, urf-odati yaqin. Bir vaqtlar bu o‘lmas an‘analarga raxna solib, xalqlarimizni bir-biriga dushman ko‘rsatishga urinishlar bo‘ldi. Nihoyat jigargo‘shasining quvonchli kuniga sherik, qiynalgan damlarda yelkadosh bo‘lolsay, chegaradan ortga mungli boqqan qora ko‘zlar duosi ijobat topdi. Yangi O‘zbekistonda xalq diplomatiyasi ustuvorlik kasb etdi. Tom ma‘noda inson qadri yuksaldi.

Prezidentimiz raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 16-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan yettinchi Maslahat uchrashuvini kuzata turib, o‘sha damlarni yana bir bor esladim. Mintaqada davlatlararo hamkorlik, do‘stlik yangi bosqichda namoyon bo‘lganini ko‘rib, barcha Markaziy osiyoqliklar kabi men ham quvondim.

Bir muhim jihat. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Qambarota GES-1 qurilishi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, 2024-yil iyun oyida esa loyihamni ro‘yobga chiqarishga tayyorgarlik ko‘rish

to‘g‘risidagi idoralararo bitim imzolandi. Davlatimiz rahbari va qo‘shni davlatlar yetakchilarining siyosiy irodasi bilan amalga oshgan bu sa‘y-harakatlar Farg‘ona vodiysining o‘zaro manfaatli hamkorlik hududiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Xalqimiz bejiz “Birlashgan o‘zar”, “Kuch — birlikda” demagan. Birodarlilik, barcha masalalarni bahamjihat hal etish, yangi g‘oya va tashabbuslarni ilgari surish, xalqaro munosabatlarni, savdo va turizm, yoshlar ta‘lim-tarbiyasi, qishloq xo‘jaligi, sanoatni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasidan.

Keyingi yillarda ikki tomonlama formatda yirik qo‘shma loyihalarni moliyalashtirish uchun O‘zbekiston — Qirg‘iziston va O‘zbekiston — Tojikiston investitsiya fondlari ishga tushirildi. Yangi moliyaviy institutlar doirasida avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi sohasida istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga kirishildi. Misol uchun, Beshariq tumanining Tojikiston bilan chegara hududida “Andarxon” mintaqaviy savdo-logistika klasteri barpo etilmoqda. Zamonaviy majmuada 200 dan ziyod obyekt — ishlab chiqarish sexlari, do‘konlar, mehmonxonalar, bank hamda logistika markazi tashkil etiladi. Keng qamrovli bunday jarayonlarni import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, Markaziy Osiyoning sanoat infratuzilmasi barqarorligini ta‘minlash borasida tashlangan dadil qadam deya e‘tirof etishga haqlikim.

Viloyatimizda turizm oqimini yanada oshirish maqsadida turli yo‘nalishdagi sayyohlik maskanlari tashkil etish bo‘yicha

yangi loyihalar ko‘paydi. Atrofi purviqor tog‘lar bilan o‘ralgan So‘x tumani so‘lim tabiati qo‘nyida dam olishning o‘ziga xos gashli, taroviyat bor. Keyingi yillarda ko‘hna maskan hayot tarzi, go‘zal tabiati bilan yaqindan tanishmoqchi bo‘lgan sayohatchilar uchun yangi imkoniyatlar qadim etilmoqda. “Farg‘ona — So‘x — Farg‘ona” yo‘nalishida “Humo Air” aviakompaniyasi tomonidan aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yildi. Avvaliga haftasiga 2 marta amalga oshirilayotgan parvozlar soni bugunga kelib ikki karra ko‘paydi.

Eksklav hududlar hisoblangan So‘x tumani, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara va Farg‘ona tumanining Shohimardon qishloqlariga borib kelish mashaaqqat edi. Ularda yashaydiganlar viloyat markaziga kelishi uchun qancha zahmat chekkanini so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. Bugun bu qishloqlarga istalgan inson bemaol sayohatga boryapti. Buning uchun Qirg‘iziston chegarachilariga ID karta taqdim qilish kifoya!

Shohimardon hamda Yordon qishloqlariga sayyohlarni jalb etish, ularga har jihatdan

qulay sharoitlar yaratib berishga alohida e‘tibor berilmoqda. Mahalliy va xorijiy investorlarni hududga chorlash, Shohimardon qishlog‘ida yirik turizm zonalarini tashkil etish, transport sohasida qo‘shimcha sharoit yaratish, ekstremal turizmni rivojlantirish borasida yangi loyihalar amalga oshirilayapti. Ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko‘p, albatta. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi buning uchun yangi imkoniyatlarni eshigini ochib berdi. Bir maqsad yo‘lida hamjihat, hamkor bo‘lishimizga da‘vat etdi.

Farg‘ona — Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan qadimiy go‘sha. Tarix charxpalagali bu mintaqaga yana bir mas‘uliyatli yukni — xalqlar do‘stligi va jipsligini ta‘minlash vazifasini qo‘yyapti. Bu yo‘lida barchamiz bir bo‘lib, ta‘bir joiz bo‘lsa, bir musht bo‘lib ish ko‘rishimiz har jihatdan ahamiyatli. Zero, bugungi notinch dunyoning o‘zi ana shunday birdamlikni, ezgu g‘oyalarni atrofida birlashish va mehru saxovatni talab qilmoqda.

Shu kunlarda dunyo hamjamiyati e’tibori O‘zbekistonga qaratilgan. Chunki so‘nggi yillarda mushtarak maqsad, yaqin do‘stlik va hamkorlik, ahil qo‘shnichilik munosabatlarini namoyon etayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari yana bir bor azim Toshkent shahrida jam bo‘ldi. Oliy darajadagi uchrashuvlar, tadbirlar, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvini nafaqat qo‘shni yurtlar, balki jahon mamlakatlari katta qiziqish bilan kuzatdi. Bir necha kun davomida xalqaro maydon e’tiborida turgan mazkur yirik tadbir xorij ommaviy axborot vositalari orqali ham keng yoritildi.



Taraqqiyot odimlari

O‘ZARO YAKDILLIKKA ASOSLANGAN IMKONIYATLAR CHORRAHASI

tadbirkorlar uchun ham yangi davrni boshlab bermoqda

Bugun Markaziy Osiyo davlatlari birlashib, bir kuchga aylanayotgani, bitta mintaqa sifatida imkoniyatlarini birlashtirayotgani, natijada katta maqsadlarga erishayotgani haqida barcha gapirmoqda. Mintaqaga jadal rivojlanayotgan istiqbolli maydon, umumiy makon sifatida qaralypati. Ya’ni azaldan tili, madaniyati, qadriyatlari o‘xshash bo‘lgan qo‘shni davlatlar bugun dunyo ko‘z o‘ngida birgalikda rivojlanish yo‘lida jipslashmoqda.

Bunda davlatimiz rahbarining hisssasi katta ekanini dunyo mamlakatlari ham e’tirof etyapti. Boisi, bundan o‘n yillar oldin biz qardosh xalqlar, qo‘shnilarimiz bilan do‘stona munosabatlar haqida bong urib, azaldan yaxshi munosabatlarimiz borligini gapirsak-da, amalda chegaralarimiz yopiq, ba’zilari bilan bordi-keldi uzilgan, iqtisodiy munosabatlar ham hamingqadar edi. Bir mintaqada ekanimiz aytilsa-da, hamma o‘zicha, o‘zi uchun harakat qilardi.

Prezidentimiz sa’y-harakatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari oxirgi yillarda bir-biriga yaqinlashdi. Maqsadlar umumiylashib, birgalikda harakat bosqichiga o‘tildi. Yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri esa chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidan. O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan bog‘laydigan barcha chegaralarni ochdi. Doim tilda aytilgan do‘stlik, hamjihatlik munosabatlari amalda bo‘y ko‘rsata boshladi. Qardosh xalqlar bir butun makon, eng ishonchli do‘stlarga aylandi. Jahon maydonida ham umumiy mintaqa sifatida o‘z so‘zi, o‘z o‘imini mustahklamadi.

Davlatimiz rahbari shu yilning 13-noyabr kuni “Yangi O‘zbekiston” gazetasida e’lon qilingan “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasida ta’kidlaganidek, bugungi kunda globalashuv, ziddiyatlarga to‘la zamonda Markaziy Osiyo o‘zining birlashuvi, jipslashuvi bilan yangi modelni namoyish etmoqda. “Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda”, deyiladi maqolada.

Ayni shu jihat Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yurtimizda 16-17-noyabr kunlari

bo‘lib o‘tgan yettinchi Maslahat uchrashuvida ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Yirik tadbirga tayyorgarlikning o‘ziyoq kishida o‘zgacha hissiyotlarni uyg‘otdi. O‘sha sanadan bir necha kun oldin poytaxtimizdagi Yangi O‘zbekiston bog‘i tomon yo‘lim tushgandi.

Keyingi yillarda qurilgan keng, ravon yo‘l bo‘ylab borakanman, har gal ikki tomonda qad rostlayotgan yangi binolarni ko‘rib hayratga tushaman. Bunyodkorlik ishlari, shahrimizga ko‘rk berayotgan zamonaviy maskanlar meni g‘ururlantiradi. Kuzning so‘nggi oyi bo‘lishi, bir necha kun avval yaxshigina salqin kuzatilganiga qaramay, yo‘lak bo‘ylab ekilgan rang-barang gullar, dekoratsiyali landshaftlar bahor nafasini berib turadi. Shahardan bir oz chetda bo‘lgani uchunmi, havosi musaffo, osmon ham tiniq. Shunday manzara fonida esa yo‘lining ikki cheti bo‘ylab qardosh birodarlarimiz — qozoq, turkman, qirg‘iz, tojik, ozar xalqlarining bayroqlari o‘zimizniki bilan yonma-yon hilpirab turibdi. Yakdillik, birdamlik ruhini berib turgan manzara shahar ichida ham davom etdi. Bu ko‘p millatli yurtimizda istiqomat qilayotgan qardosh birodarlarimiz qalbini ham o‘zgacha to‘lqinlantirgani rost.

Ana shunday kayfiyatda yettinchi bor o‘tkazilgan Maslahat uchrashuvining ruhi o‘zgacha bo‘lgani ta’kidlanmoqda. Allaqachon umumiy maqsadlar yo‘lida birgalikda dadil qadam tashlayotgan mintaqa rahbarlari bugun yanada katta masalalarni o‘rtaga tashlab, barcha sohalarida istiqbolli loyihalarni muhokama qildilar.

Davlatimiz rahbari Maslahat uchrashuvidagi nutqida ta’kidlaganidek, mintaqa jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashmoqda, investitsiyaviy jozibadorlik oshib, uchinchi bozorlarga eksport imkoniyatlari kengayib boryapti, tranzit salohiyati o‘smoqda. Xususan, o‘tgan yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 10,7 milliard dollarga yetgan. Mintaqaga kiritilgan investitsiya umumiy hajmi esa 17 foiz ko‘paygan. Uchrashuvda savdo hajmini ikki barobar oshirish maqsad qilindi.

Ya’ni mintaqaning umumiy maqsadlari qatorida iqtisodiy rivojlanish omillari yetakchilardan biri sanaladi. O‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, tranzit yo‘llarni barpo etish, transport-logistika, eksport va import



masalalarida qulay, barcha uchun manfaatli kelishuvlarga erishish bo‘yicha faol harakatlar qilinmoqda. Mintaqada yagona ishlab chiqarish zanjirini yaratish ko‘zda tutilgan. Bu yurtimiz va qo‘shni davlatlar tadbirkorlari uchun ham katta imkoniyat eshiklarini ochadi.

Hamkorlikda muhim bosqich

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi oldidan yurtimizda o‘tkazilgan yirik xalqaro biznes-forum buning yaqqol isboti. Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida o‘tgan forum Markaziy Osiyo va Ozarbayjon formatida “chegarasiz hamkorlik” shiori ostida tashkil etildi. Unda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjondan vazirlik hamda idoralar, savdo-sanoat palatalari, yirik kompaniyalar va xususiy sektorning 300 dan ortiq vakili qatnashdi.

Bunday formatdagi biznes-forum yurtimizda ilk bor o‘tkazildi, — deydi O‘zbekiston Savdo-

sanoat palatasi raisi Davron Vahobov. — Mazkur forum Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon tadbirkorlarini yagona biznes maydonida birlashtirdi. Mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani yangi bosqichga ko‘tarish, savdo aloqalarini kengaytirish va ishbiarmonlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni kuchaytirishga xizmat qiladigan maydon yaratildi. Gap shundaki, Ozarbayjon bilan o‘zaro hamkorlik va yagona bozorni shakllantirish barcha Markaziy Osiyo davlatlari uchun kerak. Chunki bu davlat orqali Yevropa bozoriga chiqishimiz uchun yangi yo‘llar ochiladi. Qolaversa, o‘zaro iqtisodiy hamkorlik o‘shisidan barcha tomonlar birdek manfaatdor. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan mahsulotlar, tadbirkorlar bo‘yicha ma’lumot olish mumkin bo‘lgan umumiy platforma mavjud emas. Biz birgalikda umumiy platformani yaratmoqchimiz. Mintaqada yagona ishlab chiqarish zanjirini barpo etish, mahalliy xomashyo asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, logistika va energetika sohalarida hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surildi. Loyihalarni birgalikda amalga oshiramiz.

Barcha uchun manfaatli bozor

Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yil boshidan buyon O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 15 foiz o‘sgan. O‘tkazilgan biznes-forum yaqin vaqtlarda bu raqamlarni yanada oshirishi kutilyapti. Tarixiy tadbirda nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlarining eng yirik ishbiarmonlari ozarbayjonlik vakillar bilan muloqotga kirishdi. Ya’ni mintaqa bir butunlikda harakat qilyapti, birgalikda rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Qolaversa, ishtirokchi davlatlarning o‘zlarini ham o‘zaro kelishuv muloqotlarini olib bordi. Yangi hamkorlik geografiyasini ochish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi.

— Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi oldidan o‘tkazilgan yangi formatdagi biznes-forum mintaqamiz uchun muhim voqeadir, — dedi Qozog‘iston Tashqi savdo palatasi boshqaruvchi raisi Murat Karimsakov. — Bu biznes uchrashuv Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy aloqalar va qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, yangi biznes hamkorlik mexanizmlarini yaratishga intilayotganiga guvohlik beradi. Ana shu omillar orqali mintaqaviy hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Siyosiy va hukumatlararo munosabatlardan amaliyotga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tmqdami. Bunda biznes hamkorlik asosiy rollardan birini o‘ynaydi. O‘zaro qo‘shma ishlab chiqarishlar tashkil etilayotgani, biznes aloqalar kengayib borayotgani, eksport va investitsiya tashabbuslari rivojlanayotgani buning isboti. Masalan, hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Qozog‘iston kapitaliga ega 1041 dan ortiq korxona ro‘yxatdan o‘tgan. Qozog‘istonda esa o‘zbek kapitaliga ega 4 500 dan ortiq kompaniya faoliyat ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi Markaziy Osiyo biznes doiralari faqat savdo qilish bilan cheklanmay, balki ishonch, o‘zaro manfaat va uzoq muddatli sheriklikka asoslangan umumiy iqtisodiy ekitizimlar yaratishga tayyorligini ko‘rsatadi.

Bunday aloqalardan, ayniqsa, tadbirkorlar va ishbiarmonlar manfaatdor. Hamkorlik ko‘lami ortishi bevosita ularning ishlab chiqarish quvvatlarini, eksportlari hajmi kengayishiga xizmat qiladi. Yangi qo‘shma loyihalar paydo bo‘ladi, barcha tomonlarda sanoat, iqtisodiyot yanada rivojlanadi. Xullas, tadbirkorlar yanada kengroq ko‘lmda, ko‘proq hamkorlar bilan ishlay boshlaydi.

— Bugun Markaziy Osiyo davlatlari har sohada birgalikda rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Bu tarixiy harakat, desak adashmaymiz, — deydi qirg‘izistonlik tadbirkor Aiday Tursunbekova. — Mintaqa rahbarlari hamkorlikni kengaytirish yo‘lida ko‘plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Biz, tadbirkorlar ham shunga mos tarzda qadamlar tashlayapmiz. Biznes-forumda bunga yanada kengroq imkoniyat yaratildi. O‘zaro muloqot, ishonchli hamkorlar topish, qo‘shma loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun bir maydonda fikr almashdik. Ayniqsa, O‘zbekistonda hamkorlikning katta salohiyatini ko‘ryapmiz. Chunki bu davlat so‘nggi yillarda tez va samarali rivojlanib boryapti. Qo‘shni davlat sifatida bu o‘shishni yaqqol ko‘ryapmiz va bu bizni ham ilhomlantiradi. O‘zbekiston tajribasini o‘z sharoitimizga moslab qo‘llashni rejalashtiryapmiz.

Bu hamkorlikdan mahalliy tadbirkorlarimiz ham unumli foydalanishga intilmoqda. To‘g‘ri, bugunga qadar eksportimizning katta qismi qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ammo bugungi kun bilan solishtirganda, bu yetarli ko‘rsatkich emas edi. Bu borada imkoniyatlar, salohiyat ancha katta.

— Yangi aloqalar yangi kelishuvlar degani, — deydi “MFAKTOR” loyihasi asoschisi Hasan Mamasaidov. — Bugun o‘zbek tadbirkorlari mahalliy bozordan tashqari yangi chegaralarni zabt etishga intilmoqda. Nafaqat o‘zimizning tadbirkorlar, balki Markaziy Osiyo davlatlari hamda Ozarbayjon ishbiarmonlari uchun ham bu muhim. Bugun biz o‘zaro yakdillikka asoslangan yangi bozor, yangi imkoniyatlar, yangi manfaatlar chorrahasi guvohi bo‘lib turibmiz.

Bu chorraha azaldan bo‘lgan, aslida. Asrlar davomida Buyuk ipak yo‘li savdo va madaniyat ko‘prigi bo‘lgan, bugungi kunda esa u yangi formatda — biznes hamkorlik orqali qayta tiklanmoqda. Dunyo nigohida Markaziy Osiyo nafaqat geografik jihatdan, balki yakdil munosabatlardan, ishonchli do‘stlik, mustahkam hamkorlik nuqtayi nazaridan ham bir butun mintaqa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon bozorida ushbu mintaqaga jadal rivojlanayotgan, investorlar uchun qulay yagona model sifatida qaralayotgani boisi shunda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Taraddud

Davlatimiz doim xalqning yonida. Ayniqsa, kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalar, nogironligi bor yoki og‘ir kasal yurtdoshlarimiz muntazam ham moddiy, ham ma’naviy qo‘llab-quvvatlanmoqda.

2020-yili koronavirus pandemiyasi dunyoni o‘rgimchak to‘riday chirmab olgan bir paytda ko‘plab davlatlar qatori mamlakatimizda ham ehtiyojmand, iqtisodiy sharoiti og‘ir xonadonlarga naqd pul ko‘rinishida moddiy ko‘mak berildi. Bu amaliyot keyin ham turli ko‘rinishlarda davom etdi. Ikki yildan buyon aholining ehtiyojmand qatlamiga kuz-qish mavsumida energiya to‘lovini to‘lash uchun berilayotgan bir martalik moddiy yordam puli shular jumlasidan. Xususan, 2024-yili 270 ming so‘mdan moddiy yordam ajratilgan. Bu mavsumda esa yordam puli o‘tgan yilgidan to‘rt barobar oshirildi.



YORDAM PULI EHTIYOJMANDLARGA YETIB BORYAPTIMI?

Prezidentimizning 2025-yil 2-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, ayni paytda 2025-2026-yil istish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamiga 1 million so‘mdan bir martalik moddiy yordam to‘lash jarayoni davom etyapti.

Kuz-qish mavsumida yog‘ingarchilik bo‘lishi, havo harorati pasayishi tufayli yurtodoshlarimiz elektr energiyasi, gaz va boshqa energiya mahsulotlaridan odatdagidan ko‘proq foydalana. Tabiiyki, bu to‘lovning ortishiga ham sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, qalin kiyim-kechaklar

sohib olish va boshqa xarajatlar ham ehtiyojmand oilalarni murakkab ahvolda solishi mumkin. Mana shunday vaziyatda davlat ajratayotgan mablag‘ ko‘pchilikning joniga ora kiradi.

— Ushbu yordam puli, birinchi o‘rinda, Ijtimoiy himoya yagona reyestri yoki Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan 822 ming kishiga beriladi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bosh mutaxassisi Madina Azizova. — Shuningdek, “mahalla yettilligi” xulosasiga ko‘ra, turli aholi qatamlariga, jumladan, kambag‘allikka qayta tushish ehtimoli yuqori hamda boquvchisini yo‘qotgan oilalar, keksalar, nogironligi borlar va og‘ir kasallar yashaydigan xonadonlarga taqdim etiladi. Ro‘yxatga qab ta’minoti mavjud bo‘lmagan 2000 dan ortiq ko‘p qavatli uyda istiqomat qiluvchilar hamda bir xonadonda uch va undan ortiq oila bo‘lib yashovchi 26 mingta oila ham kiritilgan. Moddiy yordam pulini berishda aholi orasida faqat nafaqa yoki pensiya hisobiga yashovchilar, ko‘makka muhtoj va oila boquvchisi xorijda ishlayotganlarning ijtimoiy holati ham inobatga olinadi. Natijada bir martalik moddiy yordam to‘lash uchun 1,2 trillion so‘mlik elektron to‘lov ro‘yxati shakllantirildi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: ushbu mablag‘ haqiqiy muhtoj yurtodoshlarimiz qo‘liga yetib boryaptimi? Ijtimoiy himoya yagona reyestri yoki Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilganlar onlayn aniqlanadi. Ammo “mahalla yettilligi” xulosasiga ko‘ra, qolgan 287 ming ehtiyojmandni aniqlashda adolat tamoyillari, shaffoflik qanday ta’minlanmoqda?

— Ro‘yxatni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirilgan ma’lumotlardan

unumli foydalanildi. Natijada moddiy yordam tom ma’nod ehtiyojmandlarga yetib borishi, adolat tamoyillari asosida taqsimlanishi uchun zarur ishlar bajarildi, — deydi Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi Yangiobod mahallasi raisi Manzura Yaliyeva. — Xulosa berishdan oldin har bir oilaning mol-mulki, uy-joyi va avtotransport vositasi mavjudligi maxsus “skoring” tizimi orqali aniqlandi. Ammo mahallaga yordam puli so‘rab kelgan yurtodoshlarimiz orasida mol-mulki boshqa birovning nomiga rasmiylashtirilganlar uchradi. Bunday holatlarda “mahalla yettilligi”ning sinchkov kuzatuvchi qo‘l kelmoqda. Birgina misol: yaqinda turmush o‘tq‘ri xorijda bo‘lgan mahalladoshlarimizdan biri moddiy yordam so‘rab murojaat qildi. Ammo kuzatuv va tekshiruvlarga ko‘ra, oilaning 2 ta avtomashinasi va yana qo‘shimcha ikkita uyi borligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu ma’lumotga ega ekanimizni eshitgandan so‘ng uzr so‘rab, noto‘g‘ri qilishini tushunib yetdi. Ha, muhtojlar qolib, olg‘irlik qilishga urinuvchilar ham uchrab turadi. “Mahalla yettilligi” bunday holatlarni batafsil o‘rganib, fuqarolar orasida tegishli tushuntirishlar o‘tkazyapti. Faollarimiz sa’y-harakati bilan moddiy ko‘makka haqiqatan muhtoj bo‘lgan 41 ta oilaga ushbu yordam puli yetkazildi. Mahalla faollari va hududlardagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari xodimlari ro‘yxatni shakllantirish va mablag‘ni egalarga yetkazish jarayonida puldan ham qimmatliroq tavsiyalar beryapti. Energiya tejamlor maishiy texnika vositalari va “yashil energiya” texnologiyalari foydasi haqidagi targ‘ibot materiallari tarqatilyotgani shular jumlasidan.



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Moddiy yordam summasi bejiz 1 million so‘m etib belgilanmagan. Tahillarga ko‘ra, 2024-2025-yil istish mavsumida ehtiyojmand oilalar o‘rtacha 254 kilovatt elektr va 514 kub tabiiy gaz iste’mol qilgan. Tariflar oshishi natijasida ularning xarajati bu mavsumda taxminan 815 ming so‘mga ortadi. To‘lanishi ko‘zda tutilgan moddiy yordam ushbu xarajatni to‘liq qoplaydi.

Yordam puli aholiga noyabr oyi ichida yetkazib berilishi mo‘ljallangan. Mablag‘ tijorat banklari bilan hamkorlikda ehtiyojmand oilalarning plastik kartasiga elektron o‘tkazib berilmoqda. Buning imkoni bo‘lmagan holatlarda sayyor kasallar

orqali xonadon egasiga naqd shaklda taqdim etilyapti.

— Bank sayyor kasalasi va mahalla faollari uyimizga kelib, 1 million so‘m moddiy yordam pulini berib ketdi, — deydi qashqadaryolik Dildora Mahmaramova. — Turmush o‘rtog‘im ishlagani chet elga ketgan. Shu kunlarda havo harorati ancha pasayib qoldi. Biz esa hali bolalarimizga qalin kiyimlar olib berolmagandik. Yordam puliga ularga issiq tutuvchi kiyim-kechak oldim. Endi turmush o‘rtog‘im pul yuborsa, elektr energiyasi, gaz to‘lovlarini to‘laymiz. Mahalla faollari kunora holimizdan xabar olib turadi. Davlat berayotgan imtiyoz va imkoniyatlar og‘irimizni yengil qilyapti.

Ayni paytda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholi yashash sharoitini yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratilgan. Ortga qaytmas tub islohotlar mohiyatidan ham ushbu ergu g‘oya turibdi. Ayniqsa, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlashning har qanday usuli va turi hayotga tatbiq etilyapti. Ehtiyojmand yurtodoshlarimiz esa berilayotgan imtiyoz va rag‘batdan oqilona foydalanib, daromadi, yashash sharoitini yanada yaxshilasa, asl maqsadga erishilgan bo‘ladi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



IB TIZIMIDAGI ILK DAVLAT MAKTABI “PREZIDENT IQTIDORLI FARZANDLARI”NI TARBIYALAYDI



Javohir AHMEDOV,
Al-Beruniy nomidagi xalqaro
maktab-internet
ijrochi direktori

Bu tashabbusning mazmuni yoshlarni rang-barang imkoniyatlar bilan qo'llab, ularda global tafakkur, ilmiy izlanish madaniyati va yurtga xizmat qilish tuyg'usini mustahkamlashdan iborat. Xususan, inson kapitalini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga hamohang tarzda faoliyat boshlagan Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internet iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularning bilim va ko'nikmalarini xalqaro standartlar asosida yanada rivojlantirish va eng muhimi, dunyo miqyosida tan olingan TOP-50 reytingdagi universitetlarga o'qishga tayyorlash uchun maxsus tashkil etilgan.

Al-Beruniy maktabi o'z nomiga mos ravishda ilm, tafakkur va ma'naviyat uyg'unligini ifodalaydi. Maktab logotipida aks etgan “Qutadg'u bilig” jumlasini ham bejiz emas, ya'ni maktab “saodatga eltuvchi bilim” maskanini sifatida bilim va adolat, aql va fazilat birligini anglatadi.

Joriy yilda maktabga ilk qabul jarayonlari tashkil etilib, 16 mingdan ziyod nomzod ichidan eng yuqori natija ko'rsatgan 60 nafar yosh o'qishga qabul qilindi. Imtihonlar matematika va ingliz tili bo'yicha ikki bosqichda hududlar kesimida o'tkazildi.

Muassasada ta'lim tizimi Shveysariyaning International Baccalaureate Diploma Programme dasturi asosida tashkil etilgan. Bu dastur dunyoning 160 dan ortiq davlatida e'tirof etilgan. Dunyo bo'ylab IB tizimida faoliyat yuritayotgan maktablar soni 6 mingdan ziyod, ularda 1,95 million o'quvchi ta'lim olmoqda. Dastur to'rtta bosqich — PYP (boshlang'ich), MYP (o'rta), DP (diplom dasturi) va CP (kasbiy yo'nalishdan iborat bo'lib, 3 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini nazarda tutadi).

Al-Beruniy maktabi O'zbekiston tarixida, qolaversa, Markaziy Osiyoda IB Diploma Programme (DP) dasturini amalda joriy etgan ilk davlat maktabi sifatida tashkil etildi. Jumladan, bugungi kunga qadar IB tashkiloti tomonidan ikki bosqichli dastlabki baholash tashriflari amalga oshirilib, maktab uning barcha talablaridan muvaffaqiyatli natijalar bilan o'tdi.

Shuningdek, bugungi kunga qadar maktab 20 ga yaqin xalqaro ta'lim tashkiloti va yetakchi universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Jumladan, Avstraliyaning Sidney va Monash universitetlari, Buyuk Britaniyaning “Kaplan International” tashkiloti bilan Kardiff va Sasseks universitetlari bilan hamkorlik memorandumini imzolandi. AQSHning “Ivy League” — dunyodagi eng nufuzli universitetlar ittifoqiga kiruvchi Garvard, Yel, Braun, Kornell va Kolumbiya universitetlari bilan hamkorlik yo'nalishlarini kengaytirish bo'yicha muzokaralar o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, istiqbolida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, xususan, IB o'quvchilari malakasini oshirish, raqamli va STEAM yo'nalishlarini chuqurlashtirish, shu bilan birga, o'quvchilarni ilm-fan va texnologiyalar kesishgan nuqtalarda o'qitish maqsad qilingan.



Maktabda darslar to'la ingliz tilida o'tilib, qo'shimcha ravishda yana ikki chet tili ni chuqur o'rganish, ilmiy tadqiqot va startap loyihalarida, xalqaro olimpiada va tanlovlarda qatnashish imkoni mavjud.

Maktabni muvaffaqiyatli bitirgan va dunyoning TOP-50 universitetlaridan biriga qabul qilingan o'quvchilarning xorijdagi ta'lim hamda yashash xarajatlari davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi. Prezidentimiz farmoni bilan mustahkamlab qo'yilgan ushbu imkoniyat yoshlarga kelajakda mamlakatimiz va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun zamin yaratadi.

Har yili eng yuqori akademik ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchilarni Garvard, Stenford, Oksford va Kembrij kabi nufuzli universitetlar huduzida tashkil etilgan yozgi oromgohlarga yuborish va universitet qabul talablari hamda hayoti bilan yaqindan tanishtirish, maktabni yakunlagach, mazkur universitetlarda o'qishi maqsad qilingan. Shuningdek, bitiruvchilarning global tarmog'i shakllantirilib, ular yurt taraqqiyotiga qaytib xizmat qiladigan intellektual elita sifatida shakllanadi.

Mazkur maktabda ta'lim olayotgan yoshlar ertangi kunning siyosatchilari, olimlari, muhandislari, diplomatlari, bir so'z bilan aytganda, yetuk kadrlar bo'lib yetishishiga shubha yo'q. O'zbekiston ta'lim tizimi tarixida ilk bor davlat tashabbusi bilan tashkil etilgan, xalqaro akkreditatsiyaga eng bunday maskan bizning xalq sifatida bilimga, tafakkurga va yuksak maqsadlarga sodiqligimiz namunasi.



JARAYON

2025-yil 19-noyabr, 240-son



O'RTA BO'G'IN KADRLARI UNIV yo'lda qolmaydi

Davlatimiz rahbari shu yil 15-sentabr kuni Bo'stonliqda o'qituvchi va murabbiylar bilan muloqotida kasbiy ta'lim masalasiga alohida to'xtaldi. Tizimdagi kamchiliklar tilga olinib, kasbga o'qitishga yetarli darajada e'tibor berilmagani aytiladi. Sohaga jiddiy yondashuvning amaliy ifodasi o'laroq, 2026-yil tizimda Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish yili bo'lishi ta'kidlandi.

Endi kasb yoki oliy ta'limga yo'naltirish maqsadida 9- va 11-sinf o'quvchilari uchun joriy qilinadigan yagona davlat imtihonlari orqali 400 mingga yaqin 9-sinf bitiruvchisi texnikumlarga qamrab olinadi. Sohada yig'ilib qolgan qator muammolar yechimi esa yaqindagina imzolangan “Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmon va “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda ko'rsatib berildi. Eng muhimi, Kasbiy ta'lim agentligi tashkil qilinib, kasbga o'qitishning yaxlit mexanizmi yaratildi.

Avval bu borada alohida tizim bo'lmagan uchun agentlikning umid katta — mamlakatimizdagi qariyb 600 ta texnikumga yangi muhit kirib kelishi kutilyapti. Xalqaro standartlarni joriy qilish bilan o'rta bo'g'in ta'lim sifati, samaradorligini oshirishga erishish ko'zda tutilyapti. Bu orqali 9-sinfni tamomlagan yoshlarning aqal qarorga kelomlasligi, oliyogha kirolmagan bitiruvchilarning daromad ilinjida noto'g'ri yo'llarga kirib qolishi kabi salbiy holatlarni kamaytirishga erishiladi. Chunonchi, sa'y-harakatlar ortida har bir yoshni kasb-hunar orqali daromadli qilish, oilalar ro'zg'orini butlash, mahallalarda tinchlik hukm surishini ta'minlashdek ezgu niyat turibdi. Kelasi yili sanoatda boshlanadigan qariyb 45 milliard dollarlik yirik loyihalarda “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri, dual ta'limga tayamlar ekan, eng avvalo, kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari, ishlab chiqarish ta'lim ustalariga qulayliklar, imtiyozlar yaratishimiz kerak bo'ladi. Shu ma'noda, yuqoridagi farmon va qaror dastavval ularning hayotida, shu orqali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda qanday o'rinni tutishi yuzasidan soha vakillarini subhagta tortdik. Turli kasb egalari, ishchi kuchiga hamisha ehtiyojmand bo'lgan poytaxti azimda ilk subhatdoshimiz Toshkent shahri Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i Bunoyd Rajabov bo'ldi.

Poytaxtda bir qarich yer ham katta qiymatga ega

Hozir Toshkent shahrida 26 ta texnikum (imkoniyati cheklangan shaxslar uchun 2 ta maxsus texnikum, turli mutaxassisliklarga ixtisoslashgan 24 ta texnikum) mavjud. Barcha hududlardagi kabi bitta texnikumimizda Buyuk Britaniya bilan hamkorlikda xalqaro va qo'shma ta'lim dasturi joriy etilgan. Sergeli tumanidagi Ibn Sino jamoat salomatlik texnikumida Janubiy Koreyaning nufuzli oliygohi, Toshkent transport texnikumida Germaniya bilan qo'shma ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgan. Shu kabi qo'shma ta'lim loyihalarida o'quvchilar 1+2 (1 yil O'zbekistonda, 2 yil chet elda), 2+1 (2 yil O'zbekistonda, 1 yil chet elda) dasturlari bilan 2 ta diplomga ega bo'ladi. Bu ham avval bo'lmagan tajriba.

Endilikda texnikumlarga faqat 11-sinf emas, 9-sinf bitiruvchilari uchun ham qabul bo'lishi e'tibori jihatlaridan yana biri. Ularning bepul o'qitilishi esa qamrovni 50 foizga chiqarishga xizmat qiladi. Dual ta'limdagi eng katta yangiliklardan biri — ish joyida namuna ko'rsatgan o'quvchilarga stipendiya berilishi. Bundan tashqari, o'qituvchi va o'quvchilarni kasbga ruhlantirish maqsadida keyingi o'quv yilidan boshlab kasbga doir tanlovlar o'tkaziladi. Shu paytgacha alohida kasblar tanlovi bo'lmagan sababli soha vakillari bu yangilikni iliq qabul qildi. Zero, tanlov o'quvchi yoshlarni, ularning ustozlarini munosib rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, endi maxsus fan o'qituvchilari, ishlab chiqarish ta'lim ustalari xorijga amaliyot o'tash, malaka oshirishga yuborish bilan rag'batlantiriladi. Toshkent shahridagi ishlab chiqarish ta'lim ustalari malakasini Yashnobod tumanidagi hududiy ilg'or kasbiy mahorat texnikumida oshirib, tegishli sertifikatlarga ega bo'ladi. Barcha hududlarda bittadan shunday namunaviy texnikum bo'ladi. U yerdan eng yaxshi natija ko'rsatganlar, yuqoridagi aytganimizdek, chet elga yuboriladi.

Yana bir muhim jihat — 2030-yilgacha texnikumlarni tugatish, ularga tegishli yer uchastkalari, bino va ko'chmas mulk obyektlarini xususiy lashtirishga moratoriy e'lon qilinganidir. Ayniqsa, poytaxt texnikumlari uchun bu katta yutuq bo'ldi. Chunki Toshkentda bir qarich yer ham katta qiymatga ega. Texnikum yerlarini xususiy lashtirishga taqiq qo'yilishi bitiruvchilarning texnikumlarda o'qishi uchun sharoit yaratadi.

Kasbiy ta'limni rivojlantirish uchun hududiy tadbirkorlar kengashi tashkil etilayotgani ham ayni muddao. Shahar hokimi raisligidagi mazkur kengashga faoliyati, tayyorlayotgan kadrlari bozor talabiga to'g'ri kelmayotgan texnikumning ixtisosligini o'zgartirish vakolati berildi. Ya'ni qaysi sohaga ko'p investitsiya kirayotgan bo'lsa, o'sha sohaga kadr tayyorlanadi. Kengash texnikumlar nomini, quvvatini ham o'zgartirishi, talabga javob bermaydigan bo'lsa, vazirlik, agentlik bilan kelishilgan holda butunlay boshqa texnikum tashkil etilishi ham mumkin.

Endi texnikumlar o'zlari ishlab chiqargan mahsuloti bilan qo'shimcha mablag' olishiga geyo'l ochiladi. Masalan, qaysidir tashkilotning avtomobillariga xizmat ko'rsatish mumkin. Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumida oshpazlik, qandolatchilik

yo'nalishi mavjud. Texnikum mahsulotlarini sotish orqali o'z oshxonasini boshqaryapti. Shu bois, bu yerdagi ayni xizmat turini boshqa texnikumga ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Agentlik tasarrufida kasbiy ta'lim tashkilotlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash markazi tashkil qilingani ham maqsadga muvofiq bo'ldi. Endi texnikumlar kapital ta'mirlanadi, rekonstruksiya qilish bo'yicha investitsion dasturlarga kiritiladi, moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi. Bu borada vaucher tizimi saqlab qolingani ham bizning foydamizga. Sababi, bu byudjetdan tashqari mablag' topib, moddiy-texnik bazani yaxshilashga, pedagoglarga ustama berishga imkon yaratadi.

O'tgan yildan kasbga o'qitish markazlari vaucher tizimiga o'tgan. Ular ham endi texnikum sifatida faoliyat yuritadi. Ham o'quvchilarni qabul qiladi, ham qisqa muddatli kurslarni o'qitib boradi. Qisqa muddatli kurslarni o'qitish mablag'i vaucher tizimi asosida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi tomonidan qoplanadi. Texnikumlar bu mablag'ni kurs o'qituvchilariga maosh, rag'bat, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun ishlatadi. Texnikumlar reytingi yuritilishi esa ular orasida sof raqabotni yaratadi. O'ylaymizki, yaqin kelajakda texnikumlar hayotida yangi muhit yaratilgani, pedagoglar, ishlab chiqarish ta'lim ustalarida faollik, yoshlarda esa kasb ta'limga qiziqishning sezilarli darajada ortganiga guvoh bo'lamiz.

Maqsadli ko'rsatkichlar amalga oshsa...

Toshkent viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i Nasiba Qulbekova bilan bog'langan paytimiz ga bekobodlik kasbiy ta'lim ustozlari bilan Xitoyda xizmat safarida ekan. Sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar borasida xitoyliklar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilayotganini eshitib xursand bo'ldik.



Intervyuni Xitoy tajribasi bilan boyitgan holda berar ekansiz-da dedik hazilomuz. Subhatimiz uzoq davom etdi. Aytganimizdek, gap orasida Xitoy tajribasi ham tilga olindi.

— Kasbiy ta'lim sohasidagi har ikkala yangi hujjat tarixiy ahamiyatga molik desak, xato bo'lmaydi. Chunki ular orqali aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berildi. Kasbiy ta'lim sifati, mazmunini oshirish deysizmi, moddiy-texnik bazani mustahkamlashni, o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalari malakasini oshirish bo'ladi, umuman, tizimdagi birorta muammo e'tibordan chetda qolmadi. Zero, bugun o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash eng muhim masalalardan biri. Birgina “9-sinf bitiruvchilarning qariyb 50 foizini texnikumlarga qamrab olamiz”, degan gapning o'zi o'rta bo'g'inga bo'lgan alohida e'tiborni ko'rsatadi.

Xitoydagi o'rganishlarimizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, bolani bog'cha yoshidan boshlab kasblarga yo'naltirish, unda kasblar haqidagi ilk tasavvurlarni uyg'otish kerak. Xitoy bog'chalarida kasblarni ulug'lovchi, kasblarga yo'naltiruvchi xonalarni ko'rdik. Bolalar o'zlarini kelajakda qaysi kasbda tasavvur qilsa, o'shani egallashga intiladi. Shu ma'noda, endi bog'cha yoshidagi bolalarimizga “Atrofimizdagi kasblar” dasturi bilan ilk tasavvurlarni singdirib borishimiz maqsadga muvofiq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari “Kasblar alifbosi” yordamida kasblarning ahamiyatini tushunsa, 5-7-sinflarda “Kasblar olami” dasturi ularni kasbiy tanlovga tayyorlaydi.

Viloyatimizdagi 7 ta texnikumda xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan. Chirchiq, Psent, O'rta Chirchiqda Estoniya, Germaniya bilan payvandchilar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Yangiyo'l shahridagi jamoat salomatligi texnikumida “Global geyt” loyihasini joriy qilganmiz. Angren shahridagi texnologiyalar texnikumiga Rossiyaning yirik korxonasi tomonidan investitsiya

kiritilib, o'quv binosi, yotoqxonalar qayta jihozlandi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi.

Xitoyda esa Shimoli-sharqiy elektr energetikasi universiteti bilan sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar borasida hamkorlik memorandumini imzoladik. Unga ko'ra, energetika, qayta tiklanuvchi energiya, aqlli texnologiyalar, sun'iy intellekt akademik mobillik dasturi doirasida talabalar, professor-o'qituvchilar almashinuvi bo'ladi, qo'shma ta'lim dasturi tashkil etiladi.

Tajribamiz bilan ishonchni oqlaymiz

Gullar shahri Namangan nafaqat qo'zalligi, balki mehnatkash elining kasb-kori, turfa hunari bilan ham dogdort. Yoshlari itiluvchan, bimi ikki qilaman deyidgan. Viloyatda 50 ga yaqin kasbiy ta'lim tashkiloti bor. Ularda 2 mingdan ziyod ustoz ta'lim berib kelmokda. Viloyatning kasbiy ta'limga mas'ul Abdulahad G'afarov ham xizmat safari bilan Germaniyaga otlanib turgan ekan. Shuning uchun subhatdoshimiz bilan asosan xalqaro hamkorlik haqida fikr almashdik.

— Davlatimiz rahbari qarori bilan endi texnikumlar o'z tashabbusi bilan xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini joriy eta oladi. Shu ma'noda, kelgusi o'quv yilida Xitoy bilan qishloq xo'jaligi mashinalari va avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari, asarlarichilik bo'yicha xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilish rejalashtirilyapti. Germaniyadagi kasbiy ta'lim va malaka oshirish markazi (“ZAW-Leipzig”) bilan hamkorlikda Namangan shahri, Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanida elektrotexnika, metallarga ishlov berish va gastronomiya (oshpazlik) bo'yicha ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida delegatsiyamiz ushbu davlatga safar qildi.

Dual ta'limga alohida e'tibor berilyapti. Endi bu ta'lim shakli 5 barobar oshirilishi aytiladi. Shundan kelib chiqib, 2025-2026-o'quv yilida 44 ta kasbiy ta'lim tashkilotimizda dual ta'limga o'tiladi. 43 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha 7 mingga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda. Dual ta'lim bo'yicha mingdan ziyod ish beruvchi korxona (tashkilot) bilan shartnomalar tuzilib, qariyb 2 ming o'quvchi ish haqi olgan holda o'qiyapti.



Farmonda mashg'ulotlarning milliy klassifikatoridagi kasb va lavozimlar uchun belgilangan malaka darajasiga mos diplom yoki malaka sertifikatiga ega xodimlarni ishga qabul qilish tizimi 2027-yil 1-yanvardan quvshlab turizm, kosmetologiya va umumiy ovqatlanish sohasidagi kasb va lavozimlar bo'yicha, 1-iyundan quvshlab turizm, kosmetologiya va umumiy ovqatlanish sohasidagi kasb va lavozimlar bo'yicha Namangan viloyatida tajriba sifatida yo'lga qo'yilishi o'qituvchi-pedagoglarimizga katta ishonchdir. Pedagoglarimiz, ishlab chiqarish ta'lim ustalari ayni paytda bu ishonchni oqlash uchun bel bog'lagan.

Ha, bugun kasbiy ta'limga e'tibor har qachongidan ziyoda, maqsadlarimiz ulam. Bir yil ichida 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi, ularning eng ilg'or kasbiy ta'lim dasturlari joriy qilinishi ham buning yorqin ifodasi. Maqolaga Shveysariyaning O'zbekistonda kasbiy ta'lim islohotlarini qo'llab-quvvatlash loyihasi rahbari Simona Strasburgning quvidagi fikrlarini xulosa o'rinda keltirishni joiz bildik:

“So'nggi yillarda mamlakatingizda kasb-hunar ta'limida ko'plab islohotlar amalga oshirilyapti. Yangi qabul qilingan qararlarda xususiy sektorni faqat oliyoghar bitiruvchilarga emas, amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarga ham jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangani bizni quvontiradi. Zero, Shveysariyada ham maktab bitiruvchilarning uchdan ikki qismi kasb-hunar ta'limini tanlaydi. Tizim to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bu yoshlar uchun istiqbolli tanlov.

Munoqot MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

